



“HIBAT-UL HAQOYIQ”DA KOMIL INSON TARBIYASIGA OID QARASHLAR

Gulasal Ismoilova Javlonbek qizi

*Nukus davlat pedagogika instituti
O‘zbek tili va adabiyoti ta’lim yo‘nalishi
1-bosqich talabasi*

Ilmiy rahbar: Allamberganov Hamza

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada Ahmad Yugnakiyning pandnoma ruhida yozilgan “Hibat-ul haqoyiq” asaridagi axloqiy qadriyatlardan namunalar keltirilgan. Ayniqsa, adibning ilm olish, til odobi va dunyoning o‘zgarib turishiga oid to‘rtliklari tahlil qilingan.*

***Kalit so‘zlar:** Ahmad Yugnakiy, „Hibat-ul haqoyiq“ asari, bilim, xulq-atvor, tilni saqlash, dunyoning o‘tkinchiligi, komil shaxs.*

KIRISH

O‘zbek mumtoz adabiyotining yirik adibi, iste’dodli shoir, hadisshunos va ta’limiy didaktik adabiyot namoyondasi Ahmad Yugnakiy taxminan X-XII asrlarda yashab ijod etgan. Uning bizgacha faqat bitta – “Hibat-ul haqoyiq” (“Haqiqatlar tuhfası”) asari yetib kelgan. Adib haqidagi qimmatli ma’lumotlar Alisher Navoiyning “Nasoyim ul-muhabbat” nomli 770 tariqat ahli, adib-u avliyulloh, shayx-u donishmandlar haqida ma’lumot beruvchi tazkirasida keltirilgan: “Adib Ahmad ham turk elidin ermish. Aning ishida g‘arib nimalar manquldur (ya’ni g‘aroyib voqealar ko‘chirib qoldirilgan). Derlarki, ko‘zlari butov (ya’ni butun) ermishki, aslo zohir ermas emish. Basir bo‘lub, o‘zga basirlardek andoq emas ermishki, ko‘z bo‘lg‘ay va ko‘rmas bo‘lg‘ay”¹.

Chamasi, Navoiy ham Adib Ahmad haqidagi ma’lumotlarni biron tarixiy manbadan olgan. Aks holda, uning shaxsiy hayotiga va fazilatlariga oid quyidagi ma’lumotlarni keltirmagan bo‘lardi: “Ammo bag‘oyat ziyrak va zakiy va zohid va muttaqiy (ya’ni taqvodor, parhizkor) kishi ermish. Haq s.t. agarchi zohir ko‘zni yopuq yaratqandur, ammo ko‘ngli ko‘zin bag‘oyat yoruq qilg‘ondur: lo‘byog‘a (ya’ni o‘yinchoqqa) ilik surtubdur va debdurki, qo‘y bukragiga o‘xshaydur va naxudni barmog‘i bila silab, debdurki, itolgu boshig‘a o‘xshar. Maskani Bag‘doddin necha yig‘och, ba’zi debdurlar, to‘rt yig‘och yo‘l ekan”. Adabiyotshunos ustoz, Nasimxon Rahmonov ta’kidlaganidek, Navoiy mazkur asarida Adib Ahmadning yoshligida madrasa talabasi ekanligidayoq zukko, donishmand bo‘lgani va el og‘zida doston bo‘lganiga ishora qiladi².

¹ Nasoyim ul-muhabbat. Hikoyatlar va hidoyatlar / A.Navoiy; Ikkinchi nashri. O.Davlatovning nasriy bayoni. - Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2018. – B 206.

² Nasimxon Rahmonov. O‘zbek adabiyoti tarixi (Eng qadimgi davrlardan XV asrning birinchi yarmigacha). O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Sano-standart, 2017. – B 199.



Ahmad Yugnakiyning “Hibat-ul haqoyiq” asari o‘z davrida ham, bugunki kunda ham juda muhim ahamiyatga ega bo‘lib kelmoqda. Bu asar, avvalo, insoniyatning ruhiy va axloqiy tarbiyasiga qaratilgan bo‘lib, unda hayotning ma’nosi, axloqiy qadriyatlar va insoniy munosabatlariga to‘liq nazar tashlanadi. Asar haqida adabiyotshunoslarimiz turli fikrlarni aytib o‘tishgan. Jumladan, Gulchehra Xo‘janovanning ta’kidlashicha, “Hibat-ul haqoyiq” ning faqat ma’no va vazn nuqtai nazaridan emas, balki janr tomonidan ham adabiyotimizning keyingi taraqqiyotiga sezilarli ta’siri o‘tgan”³. Shuningdek, munozara janrining taraqqiyot yo‘llarini tadqiq etgan olim M. Abduvohidova ham o‘z qarashlarini aytib o‘tgan: “Hibat ul-haqoyiq” asaridagi kengayish, qisqarish va dunyoning birligi, o‘lim va tiriklikning almashinishi, ilm manfaati, jaholat zarari, tilni tiyish, o‘dov va axloq, dunyoning o‘zgarib turishi, saxovat va baxillik, tavozelikni oshirish va kibrlilikni tashlash, halolga hisob, haromga azob singari tortishuvli fikrlar bayonida ham munozaraning o‘sha davrlar badiiy ijodidagi o‘rnini sezish mumkin”⁴. Adib Ahmad asarni yozishda Sharq adabiyoti an’alariga sodiq qolgan holda Allohga hamd, payg‘ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallamning madhi bilan boshlangan. Keyin esa:

Choriyorlarga ham salom yo‘llayman,
Tirikman, ularning yo‘lin qo‘llayman⁵.

– deb, xalifalar, ya’ni choriyorlarga ham madh aytiladi. An’anaviy boshlanmadan so‘ng ulug‘ amir Dod Sipohsolarbekning ta’rif-tavsifini keltiradi. Hukmdordagi behisob fazilatlarini sanab, undagi sahovatpeshalik va adolatparvarlik sifatlarini ulug‘laydi. Asarda Dod Sipohsolarbek nafaqat odil podshoh, balki komil inson sifatida ham gavdalantiriladi.

Ilm bu – nur. Alloh taolo ilm o‘rganishni bandalariga farz qilgan. Binobarin, payg‘ambarimiz sallolohu alayhi vasallamga Alloh taolo tomonidan nozil qilingan dastlabki oyat “O‘qing!” deb boshlangan edi. Shundan ko‘rinib turibdiki, ilm olish dunyodagi barcha mashg‘ulotlardan afzal. Ilm qanchalik kuchli bo‘lsa, u shuncha kengroq yerni yoritadi. Dunyodagi barcha narsa vaqt o‘tib, ishlatilib, kamayishi aniq, lekin ilm qancha ishlatilmasin ortsa ortadiki, hech qachon kamaymaydi. Odamlarni dunyoda baxt saodatga yetishishi uchun ham, oxiratda jannatga kirishi uchun ham bir yo‘l – odamlarga foydasi tegadigan ilmlarni egallashdir. Zero ilm haqni botildan, yaxshini yomondan ajratib turadi.

N.S. Banarlining ta’kidlashicha, Adib Ahmadning bilimni ayolni erkak bilan teng qo‘yishi yangi ijtimoiy nuqtai nazarning ifodasi bo‘lib, “Bu nuqtai nazarga

³ “Hibat ul-haqoyiq” haqiqatlari. / Mas’ul muharrir: I.Haqulov.- Toshkent: G.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashr., 2001.- B 23.

⁴ Abduvohidova M. O‘zbek adabiyotida munozara. -Toshkent, 1984.- B 11.

⁵ Ahmad Yugnakiy. Hibatul haqoyiq, 2002 yil. - B 3.



ko'ra, ayol islomiyatning ilk asrlaridan boshlab eski turk qavmlari muhitida yuksak mavqega ko'tarilganligidan dalolat beradi"⁶.

Ahmad Yugnakiy o'z asarida ilm saodatga yetaklovchi yo'l, baxt eshiklarini ochuvchi kalit ekanligini ta'kidlaydi. Muallif bilimli va bilimsiz insonlarni taqqoslar ekan, bilimli kishini ilikli suyakka, bilimsiz kishini esa iliksiz suyakka qiyoslaydi:

So'ngakda mo'l ilik bo'lgan misoli,
Er kishining bilim bilan kamoli.
Er kishining ko'rki aqldur biling,
So'ngak ko'rki – ilik, naqldur, biling⁷.

Bilamizki, kishilar o'z taomlarini yanada mazali qilish uchun unga ilikli suyak solishadi, sababi suyakda ilik bo'lmasa, uning shirasi taomga chiqmaydi va ta'm bermaydi. Xuddi shunday, agar kishida ilm bo'lmas ekan, u jamiyatga o'z foydasini keltira olmaydi. Foyda keltirmaydigan har qanday kimsa esa, jamiyat uchun yaroqsiz. Suyakning mazmuni ilik bo'lgani kabi insonning ko'rki ham aql va tafakkur, ilm. Shoir g'oyatda chuqur mulohazalari orqali o'quvchiga e'tibor va qat'iyat bilan ilm olish kerakligini uqtiradi.

Adib Ahmad ilmning afzalliklari to'g'risidagi o'g'itlarni davom ettirar ekan, ilmsiz kishiga qancha to'g'ri gapirma, u bu gaplarga quloq solmasligini, u uchun to'g'ri ham noto'g'ridek ta'sir qilishini ta'kidlaydi. Fikrini tasdiqlash uchun "oriqsiz", ya'ni yuvinmagan kishilarga "yuvin" deb buyurilsa, ular suv orqali toza bo'lishini, johil qancha yuvinmasin, uning qalbi baribir poklanmay qolishini aytadi.

Ilmsizga to'g'ri so'z ma'nosizdir,
Unga o'git-nasihating foydasizdir.
Yuvuqsizga buyurilsa, toza bo'lur,
Johil odam ming yuvinmasin shunday qolur⁸.

Tilni saqlash, uni bekorchi gaplardan tiyish odob-axloqdan va fazilatli xulqlardandir. Tilni saqlash, avvalo, faqat yaxshi gaplarni gapirish, befoyda va yomon so'zlardan, g'iybat va chaqimchilik gaplardan uzoqlashishni anglatadi. Asarning oltinchi bobida tilni tiyish va kishi axloq-odobi haqida so'z boradi. Adib insonlarni haqiqatni gapirishga, befoyda va mantiqsiz so'zlarni ishlatmaslikka, yomon gaplar aytib, kishilarning qalbiga ozor berib qo'yishdan qaytaradi.

Tilingni nojo'ya so'zdan mahkam tut,
Tishlaring sinmasin, so'kishni unut⁹.

⁶ "Rasmi turk adabiyoti tarixi". 1-jild. - B 244.

⁷ Ahmad Yugnakiy. Hibatul haqoyiq, 2002 yil. - B 5.

⁸ Ahmad Yugnakiy. Hibatul haqoyiq, 2002 yil. -B 6.

⁹ Ahmad Yugnakiy. Hibatul haqoyiq, 2002 yil. - B 7.



Huda-behuda so‘zlash, avvalo, insonning o‘zi uchun, qolaversa yon-atrofdagilar, jamiyat uchun ham zarardir. Chunki, aynan til insonlar orasiga sovuqchilik tushishiga, jamiyat parokandaligiga sabab bo‘lib qoladi. Shuning uchun ham kishi tafakkur qilgan har bir so‘zini yaxshilab o‘ylab, keyin so‘zlashi kerak.

Asarning keyingi bobida dunyoning o‘zgarib turishi haqida gap ketadi. Adibning nazdida dunyo bu – bir qo‘nib, yana ketadigan robotdir, bu robotda tushib, o‘tguvchilar qo‘nib ketaveradi. Anglashiladiki, bu dunyoga kelgan har bir inson bir kun o‘sha dunyoni tark etadi. Hayotligida erishgan jamiki boyliklarini esa o‘zi bilan keyingi hayotiga olib keta olmaydi. Shunday ekan, bu dunyoga, undagi noz-u ne‘matlarga muhabbat qo‘yish nima uchun kerak?

Ahmad Yugnakiy dunyoni aldanchiga, yuzini ko‘rsatib qochadigan narsaga qiyoslaydi. Bu dunyoda insondan qoladigan narsa yaxshi nomdir, yaxshi nom qoldirish uchun manmanlikdan butunlay yuz o‘girish, dunyo ne‘matlariga ruju qo‘ymaslikni uqtiradi.

Bu dunyo boyligi bugun bor bo‘lsa,
Ertan yo‘q, kinga qolar kimlar o‘lsa¹⁰.

Ulug‘ zotlar dunyoning o‘tkinchi ekanligini bilib, unga bog‘lanib qolmaslik uchun harakat qilganlar. Chunki dunyo ne‘matlari uchun intilish, dunyo ne‘matlariga erishmoq uchun yashash insonni oxir-oqibat xorlikka olib boradi. Inson dunyo yaratilishiga aldanib qolmasin, lekin dunyodan voz kechdim deb dangasalikka, tanbalikka muhtalo bo‘lmasin. Maqsad boyluk topish emas, balki boylukni xayrli ishlarga sariflash.

XULOSA

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, dostonning mazmun-mohiyati hali-hamon o‘zining badiiy qimmatini yo‘qotgan emas. Asarni mutolaa qilgan har bir inson o‘z ichki dunyosini, ma‘naviyatini yuksaltirishga, haqiqiy komillik sari qadam tashlashga harakat qiladi. Atrofidagi odamlarni hurmat qilishni, o‘z o‘rnida kerakli so‘zni aytishni, kelajak hayotini yuksaltirish uchun bilim olish kerakligini, dunyo ne‘matlariga aldanib xato qilib qo‘ymaslikni o‘rganadi. Bu asar nafaqat shaxsiy yuksalishga, balki jamiyat hayotining farovonlashuviga ham xizmat qiladi. Bunday asarlarni o‘qish, o‘rganish va kelajak avlodga yetkazish biz pedagoglarning burchidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Nasimxon Rahmonov. O‘zbek adabiyoti tarixi (Eng qadimgi davrlardan XV asrning birinchi yarmigacha). O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: “Sano-standart” nashriyoti, 2017. -556 bet.

¹⁰ Ahmad Yugnakiy. Hibatul haqoyiq, 2002 yil. - B 10.



2. Rahim Vohidov, Husniddin Eshonqulov. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi. O‘quv qo‘llanma. Toshkent: O‘zbek Yozuvchilar uyushmasi Adbiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2006. -528 b.
3. Nasimxon Rahmonov, Hamidulla Boltaboyev. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi “Fan” nashriyoti, 2003 yil.
4. Ahmad Yugnakiy. Hibatul haqoyiq, 2002 yil.
5. “Hibat ul-haqoyiq” haqiqatlari. /Mas’ul muharrir: I.Haqqulov.- Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashr., 2001. - 112 b.
6. Abduvohidova M. O‘zbek adabiyotida munozara.- Toshkent, 1984 yil.
7. “Rasmlil turk adabiyoti tarixi”. 1-jild.
8. Nasoyim ul-muhabbat. Hikoyatlar va hidoyatlar / A.Navoiy; Ikkinchi nashri. O.Davlatovning nasriy bayoni. - Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2018. – 232 b.

